

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA PULGA OID FRAZEOLOGIZMLARNING MILLIY- MADANIY XUSUSIYATLARI

Eshnazarova Kamola Ubaydulla qizi

Termiz Davlat universiteti

Lingvistika (Ingliz tili) ta’lim yo‘nalishi magistranti

Ilmiy rahbar: Dautova Malika Muxtarovna,

Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi, PhD

E-mail: kamola.eshnazarova@gmail.com

Orcid: <https://orcid.org/0009-0005-9910-5287>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida pulga oid frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlari qiyosiy-lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinadi. Frazeologik birliklarning shakllanishida xalqning tarixiy tajribasi, iqtisodiy munosabatlari, ijtimoiy hayoti hamda madaniy qadriyatlari muhim rol o‘ynashi asoslab beriladi. Tadqiqot davomida ikki til frazeologizmlarining semantik, strukturaviy hamda madaniy jihatdan o‘xshash va farqli jihatlari yoritiladi. Shuningdek, ularning milliy dunyoqarash va mentalitetni ifodalashdagi o‘rni ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi. Natijalar frazeologizmlarning til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: frazeologizm, pul, milliy-madaniy xususiyat, lingvokulturologiya, semantika, qiyosiy tahlil, mentalitet, ingliz tili, o‘zbek tili.

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится сравнительно-лингвокультурологический анализ фразеологических единиц, связанных с деньгами, в английском и узбекском языках. Подчеркивается, что формирование фразеологизмов тесно связано с историческим опытом, экономическими отношениями, социальной жизнью и культурными ценностями народа. В исследовании рассматриваются семантические, структурные и культурные сходства и различия фразеологических единиц двух языков. Также анализируется их роль в отражении национального мировоззрения и менталитета. Результаты исследования показывают важную роль фразеологизмов в связи языка и культуры.

Ключевые слова: фразеологизм, деньги, национально-культурные особенности, лингвокультурология, семантика, сравнительный анализ, менталитет, английский язык, узбекский язык

ABSTRACT

This article presents a comparative linguocultural analysis of money-related phraseological units in English and Uzbek languages. It is emphasized that the formation of phraseological units is closely connected with the historical experience, economic relations, social life, and cultural values of a nation. The study explores semantic, structural, and cultural similarities and differences between phraseological expressions in both languages. It also highlights their role in reflecting national worldview and mentality. The results demonstrate that phraseological units serve as an important link between language and culture.

Keywords: *phraseology, money, national-cultural features, linguoculturology, semantics, comparative analysis, mentality, English language, Uzbek language.*

KIRISH

Til jamiyatdagi eng muhim ijtimoiy hodisalardan biridir. U nafaqat muloqot vositasi, balki xalqning madaniyati, tarixi, mentaliteti va dunyoqarashini o‘zida mujassam etgan murakkab tizimdir. Har bir tilning leksik va frazeologik boyligi o‘sha tilda so‘zlashuvchi xalqning hayot tajribasi, ijtimoiy munosabatlari va madaniy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, frazeologik birliklar tilning eng ifodali va majoziy birliklari sifatida ayniqsa muhimdir.

Frazeologik birliklar milliy tilning o‘ziga xosligini, odamlarning fikrlash tarzini va ularning madaniy qarashlarini aniq aks ettiradi. Xususan, pul bilan bog‘liq frazeologik birliklar diqqatga sazovordir, chunki ular iqtisodiy munosabatlar, boyluk, qashshoqlik va moddiy qadriyatlar haqidagi milliy g‘oyalarni ifodalaydi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi bunday frazeologik birliklar turli tarixiy, madaniy va ijtimoiy sharoitlar ta‘sirida shakllangan va ular o‘rtasida o‘xshashliklar ham, farqlar ham mavjud[2].

So‘nggi yillarda madaniy tilshunoslik sohasida frazeologiyani qiyosiy o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda. Bu turli tillardagi frazeologik birliklar orqali milliy tafakkur va madaniyatni chuqurroq tushunish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologiyalarning milliy va madaniy xususiyatlarini o‘rganish dolzarb tadqiqot masalasidir. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar lingvomadaniy va qiyosiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi, ularning semantik va madaniy xususiyatlariga e‘tibor qaratiladi.

MATERIAL VA METODLAR.

Iqtisodiy tushunchalar, xuddi boshqa har qanday tushunchalar kabi, tilning turli vositalari orqali ifodalanishi mumkin. Chunki til – madaniyatning eng muhim ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, uning boyligi madaniyat boyligini belgilaydi. Turli

madaniyatlar asosida qadriyatlar tizimi yotadi va ular til orqali, xususan frazeologizmlar hamda kognitiv metaforalar orqali ifodalanadi. Bu vositalar nisbatan yaqinda insonning konseptual tizimida shakllangan iqtisodiy tushunchalarni, shuningdek, leksik tizimning o'ziga xos tuzilish xususiyatlarini aniq, tushunarli va xilma-xil tarzda tasvirlash imkonini beradi. Shu sababli "pul" konseptining turli tillarda ifodalanish shakllarini o'rganish har bir aniq tilda farqlanadigan ushbu birliklarni tahlil qilish orqali shu tilda so'zlashuvchi xalq madaniyatining milliy o'ziga xosligini ko'rsatish uchun asos bo'la oladi. "Inson – til – madaniyat" tushunchalari "pul" konsepti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular tilning individual va milliy xususiyatlarini, madaniy urf-odat va an'analarni, ijtimoiy mavqe hamda insonning ma'naviy dunyosini aks ettiradi[1].

Shubhasiz, "pul" konseptini turli tillarda qiyosiy o'rganish va ayniqsa uning barqaror birliklar kontekstidagi metaforik qo'llanishini tahlil qilish katta ilmiy qiziqish uyg'otadi, chunki milliy o'ziga xoslikni talqin qilish mexanizmi turli xalqlarning mentalitet xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Frazeologizmlar va boshqa barqaror birliklarning (maqol, matal) lingvistik tahlili o'rganilayotgan madaniyatning ayrim qadriyat ustuvorliklarini aniqlashga, shuningdek, u yoki bu xalqning milliy xarakter xususiyatlarini ochib berishga imkon beradi. Bunday birliklar allaqachon shakllangan dunyo til manzarasini ko'rsatadi, unda "pul" konsepti muhim tarkibiy qism sifatida namoyon bo'ladi. Bizning fikrimizcha, ushbu manbalar ma'lum ijtimoiy muhit yoki shaxs uchun yetarli darajada to'liq tasavvur beradi[3].

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Ingliz tilida asosiy reprezentant "money" ham neytral va keng qo'llaniladigan birlik hisoblanadi. Masalan: *blood money* (qon evaziga olingan pul), *pin money* (mayda-chuyda xarajatlar uchun pul), *short money* (qisqa muddatli qarz), *fool's money* (ahmoqona sarflangan pul), *muck and money go together* (boylik ko'pincha nopok yo'l bilan topiladi), *hot money* (tez va ko'pincha noqonuniy yo'l bilan topilgan pul), *money is the root of all evil* (pul – barcha yomonliklarning ildizi).

Ingliz tilida pulga oid frazeologizmlar ko'pincha kapitalizm, savdo-sotiq va individual muvaffaqiyat g'oyasi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, "*time is money*" iborasi vaqtni iqtisodiy resurs sifatida baholashni ifodalaydi va ingliz-amerika pragmatik tafakkurining muhim jihatini ko'rsatadi. Shuningdek, "*make a fortune*" (boylik orttirmoq), "*cost an arm and a leg*" (juda qimmat turmoq), "*break the bank*" (katta mablag' sarflash yoki yo'qotish) kabi iboralar ham pul va qiymat tushunchasining bozor iqtisodiyoti bilan uzviy bog'liqligini aks ettiradi. Bu

frazeologizmlar ko‘pincha real hayotdagi moliyaviy tajriba asosida shakllangan bo‘lib, ingliz tilida pulga nisbatan pragmatik va hisob-kitobli munosabatni ifodalaydi[4].

O‘zbek tilida esa pulga oid frazeologizmlar ko‘proq xalqning an‘anaviy turmush tarzi, mehnatsevarlik, tejamkorlik va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liqdir. Masalan, *“pul topmoq”*, *“nonini ter to‘kib topmoq”*, *“bir tiyinni ikki qilish”*, *“qo‘lni sovuq suvga urmaslik”* kabi iboralar xalqning mehnat orqali daromad topish haqidagi qarashlarini ifodalaydi. Shuningdek, *“pulning yuzini ko‘rmagan”* iborasi kambag‘allik holatini tasvirlaydi, bu esa jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanishning tilga ko‘chgan shaklidir.

O‘zbek frazeologizmlarida pul ko‘pincha halol mehnat, baraka va qanoat tushunchalari bilan birga keladi. Bu esa milliy mentalitetda moddiy boylikdan ko‘ra ma‘naviy qadriyatlar ustuvorligini ko‘rsatadi. Ingliz tilida esa pul ko‘proq imkoniyat, erkinlik va muvaffaqiyat mezoni sifatida talqin qilinadi. Demak, har ikki tilda ham pul markaziy tushuncha bo‘lsa-da, unga yondashuv turlicha madaniy asosga ega[5].

Shuningdek, ingliz tilidagi frazeologizmlar ko‘pincha metaforik va global iqtisodiy tizimga moslashgan bo‘lsa, o‘zbek tilidagi iboralar milliy hayot tarzi, qishloq xo‘jaligi va an‘anaviy iqtisodiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Masalan, o‘zbek tilidagi *“pulni shamolga sovurmoq”* iborasi befoyda sarf-xarajatni bildiradi, bu esa tabiiy metafora orqali ifodalangan xalqona tafakkurni ko‘rsatadi[6].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o‘zbek tillaridagi pulga oid frazeologizmlar har ikki xalqning iqtisodiy tajribasi va madaniy dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim lingvistik birliklardir. Ular orqali nafaqat tilning boyligi, balki jamiyatning qadriyatlar tizimi ham namoyon bo‘ladi. Ingliz tilida pragmatizm va iqtisodiy samaradorlik ustuvor bo‘lsa, o‘zbek tilida halollik, mehnat va qanoat kabi milliy qadriyatlar asosiy o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bobojonova Z. O‘zbek tilida frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2016.
2. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press, 1980.
3. Mirzayev T., Musoqulov A. *Uzbek Folk Proverbs*. – Tashkent: Gafur Gulam Publishing and Printing Creative House, 2009.
4. Osheva, Elena. Concept “Money” in the English American Proverbs. *Historical and Social-Educational Ideas*, 2015. – Pp. 390-392.

5. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Волгоград: Перемена, 2002.
6. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). Москва: КомКнига, 2002.